

## XALQARO GUMANITAR HUQUQDA MOJAROLARNI HUQUQIY TARTIB SOLISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.

**Qudratov Javohir Komilovich**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 4-kurs talabasi* Telefon raqami: +998(94)971-80-01 E-mail: qudratovjavohir201@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro gumanitar huquqning zamonaviy rivojlanish bosqichlari, qurolli mojarolar paytida inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro sudlar va boshqa tegishli organlar kabi xalqaro institutlar faoliyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot xalqaro gumanitar huquq normalarini qo'llash mexanizmlarini, huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni va real hayotdagi muammolarni ko'rsatadigan amaliy misollarni o'rganadi. Maqolada mojarolar davrida global tinchlikni saqlash va inson qadr-qimmatini ta'minlashda xalqaro gumanitar huquqning muhimligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro gumanitar huquq, BMT Nizomi, qurolli mojarolar, Jeneva konvetsiyalari, inson huquqlari, Xalqaro jinoiy sud, global tinchlik.

**Annotation:** This article examines the modern development of international humanitarian law (IHL), the legal framework for protecting human rights during armed conflicts, and the activities of international institutions such as the United Nations (UN), international courts, and other relevant bodies. The study explores the enforcement mechanisms of IHL, responsibility for violations, and practical case studies illustrating real-world challenges. It highlights the importance of international humanitarian law in maintaining global peace and ensuring human dignity during times of conflict.

**Keywords:** international humanitarian law, UN Charter, armed conflicts, Geneva Conventions, human rights, International Criminal Court, global peace.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются современные тенденции развития международного гуманитарного права (МГП), его правовые основы и механизмы защиты прав человека в условиях вооружённых конфликтов. Особое внимание уделяется деятельности международных институтов, таких как Организация Объединённых Наций (ООН), Международный уголовный суд и другие органы, обеспечивающие соблюдение гуманитарных норм. Анализируются проблемы ответственности за нарушение МГП и приводятся примеры из современной практики. Автор подчёркивает значение международного гуманитарного права в поддержании глобального мира и защите человеческого достоинства в периоды вооружённых конфликтов.

**Ключевые слова:** международное гуманитарное право, Устав ООН, вооружённые конфликты, Женевские конвенции, права человека, Международный уголовный суд, глобальный мир.

## KIRISH

Bugungi kunda Xalqaro gumanitar huquq qurolli mojarolar paytida inson huquqlarini himoya qilish uchun hal qiluvchi asos bo'lib xizmat qiladi. U urush oqibatlarini cheklaydigan va barcha ishtirok etgan shaxslarga insoniy munosabatni ta'minlaydigan qoidalarni belgilaydi.

Ukraina hududi qadimdan turli davlatlar Litva, Polsha-Litva Ittifoqi, Rossiya imperiyasi, Avstriya–Vengriya hududlari va boshqalar davlatlar ta'siri ostida bo'lgan. XX asrda Ukraina Sovet Ittifoqining tarkibiga kirib, 1991-yilda mustaqil davlatga aylandi.

2014 yil fevral–mart oylarida Ukrainada siyosiy inqiroz sodir bo'ldi; shu yili Rossiya Qrimni anneksiya qildi va shu davrdan boshlab sharqiy Donetsk va Lugansk oblastlarida qurolli mojaro boshlandi. 2014 yil bahor–yoz voqealari Qrimning Rossiya tomonidan egallanishi bilan yakunlandi.

Donetsk va Luganskda qurolli mojarolar boshlandi; 2014 va 2015-yillarda Minsk I va Minsk II kelishuvlari urushni to'xtatish bo'yicha mexanizm sifatida qabul qilindi, ammo ular to'liq islohma erishmadi va hududiy nizolar davom etdi.

2022 yil 24-fevralda Rossiya qurolli kuchlarini keng qamrovli ravishda Ukrainaga kiritdi. Bu voqea 2014 yildan boshlangan mojaroni yangi bosqichga olib chiqdi.



Xalqaro organlar va tashkilotlar: 2022 yil boshidan boshlab BMT Bosh Assambleyasi va boshqa organlar Rossiyaning harakatlarini qoraladi; 2022 yil 2 martdagi Favqulodda maxsus sessiya rezolyutsiyasi Rossiyaning hujumini qoraladi va tarkibiy talablar qo'ydi.

Ukraina 2022 yil fevral oxirida Xalqaro Jinoyat Sudiga murojaat qilib, "genotsid" da'vosi oqibatida favqulodda choralarni so'radi; Xalqaro Sud 2022 yil 16 martda protseduraviy buyruqlar chiqardi.

Xalqaro Jinoiy Sud 2023 yil 17 martda — bolalarning deportatsiyasi va majburiy ko'chirilishi bo'yicha — Vladimir Putin va boshqa shaxslar haqida hibsga olish orderlari chiqardi.

2022–2025 yillarda Ukraina bo'ylab yirik harbiy operatsiyalar, shaharlarga zarbalar va energetika infratuzilmasiga hujumlar bo'lib o'tdi; buning natijasida tinch aholi qurbonlari va katta miqdorda iqtisodiy zarar kuzatildi. Shu davr mobaynida xalqaro sanksiyalar, yordam va diplomatik tashabbuslar boshlandi; BMT Paktining 2(4) moddasi — davlatlararo kuch ishlatmaslik prinsipi

1949-yilgi Jeneva konvensiyalari, xususan To'rtinchi konvensiya — fuqarolarni va bosib olingan hududni himoya etadi.

1907-yilgi Gaaga qoidalari — okkupatsiya va harbiy yurish qoidalari.

1977 Qo'shimcha protokollar— fuqarolik obyektlarini va tinch aholiga zarar yetkazmaslik prinsiplarini mustahkamlaydi.

Rim Statuti — urush jinoyatlari, insoniyatga qarshi jinoyatlar va genotsid moddalarini belgilaydi; tergov va hibsga olish orderlarining asosiy huquqiy bazasi.

Rossiya–Ukraina mojarosining asosiy sabablari tarixiy, siyosiy va geosiyosiy omillar bilan bog'liq. Rossiya uzoq yillar davomida Ukrainani o'z ta'sir doirasida saqlashga intildi. Ukraina esa Yevropa Ittifoqi va NATO bilan yaqinlashishga harakat qildi. 2013-yil oxirida prezident Viktor Yanukovich Yevropa Ittifoqi bilan bitimni imzolamay, Rossiya bilan aloqalarni kuchaytirishga qaror qilgani noroziliklarga sabab bo'ldi. Natijada “Evromaydan” deb atalgan xalq noroziliklari boshlandi va hokimiyat almashdi. Rossiya bu vaziyatni G'arb aralashuvi deb baholadi va o'z manfaatlarini himoya qilish bahonasida harbiy harakatlarni boshladi.

2022-yildan keyin Rossiya armiyasi Ukraina hududining katta qismini egallashga urindi, jumladan Kiyev, Xarkov, Mariupol va Xerson viloyatlarida janglar bo'ldi. Ukraina qurolli kuchlari xalqaro harbiy yordam va ichki qarshilik kuchi bilan himoyani kuchaytirdi. Mojaro natijasida minglab tinch aholi halok bo'ldi, millionlab fuqarolar Yevropa davlatlariga qochqin sifatida chiqib ketdi. Shaharlarning infratuzilmasi, energetika tarmoqlari, ta'lim va tibbiyot muassasalari jiddiy zarar ko'rdi. Inson huquqlari buzilishi, majburiy deportatsiyalar va urush jinoyatlari yuzasidan xalqaro tergovlar boshlandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, NATO va boshqa xalqaro tuzilmalar Rossiya harakatlarini xalqaro huquqni buzish deb e'tirof etdi. AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya va Yevropa davlatlari Rossiyaga qarshi keng ko'lamli iqtisodiy sanksiyalar joriy qildi. Bu sanksiyalar bank tizimi, neft-gaz eksporti, harbiy texnologiyalar, aviasiya va savdo sohalarini qamrab oldi. Shu bilan birga, Ukrainaga moliyaviy, gumanitar va harbiy yordam dasturlari yo'lga qo'yildi. 2023-yilda Bryusselda “Ukrainani qayta tiklash konferensiyasi” o'tkazilib, infratuzilmani tiklash rejalari ishlab chiqildi.

Mojaro xalqaro huquqning asosiy tamoyillari — suverenitet, hududiy yaxlitlik va kuch ishlatmaslik prinsiplariga zid deb hisoblanadi. BMT Nizomining 2(4)-

moddasida belgilanganidek, hech bir davlat boshqa davlatning hududiga kuch ishlatib kirish huquqiga ega emas. Xalqaro Jinoiy Sud Rim Statutiga muvofiq urush jinoyatlari, insoniyatga qarshi jinoyatlar va genotsid faktlarini tergov qilmoqda. 2023-yil mart oyida Vladimir Putin va Rossiyaning bolalar huquqlari bo'yicha vakiliga qarshi hibsga olish orderi chiqarilishi xalqaro adolat sari muhim qadam bo'ldi.



Kazus: Rossiya armiyasi tomonidan Ukrainadagi maktab binosiga raketa zarbasi natijasida tinch aholi halok bo'lgan. Bu holat xalqaro gumanitar huquq normalariga ko'ra qanday hal qilinadi?

Yechim: 1977-yilgi 1-Qo'shimcha protokolning 52-moddasi;

1. Fuqaro obyektlari hujum yoki repressaliylar uchun nishon bo'lmazligi kerak. Fuqaro obyektlari, deganda 2-bandda tushuncha berilgan harbiy obyektlar qatoriga kirmaydigan barcha obyektlar tushuniladi.

2. Hujum qat'iy ravishda faqat harbiy obyektlarga hamla qilish bilan cheklanishi shart. Harbiy obyektlar, deganda mazmun-mohiyati, joylashuvi, mo'ljallanishi va foydalanilishi jihatlaridan harbiy harakatlarga samarali ulush qo'shishi bilan birga, to'la yoki qisman vayron etilishi, bosib olinishi yoki ta'siriga barham berilishi tegishli shart-sharoitda sezilarli harbiy ustunlik sanaladigan muayyan doiradagi obyektlar tushuniladi.

3. Odatda fuqaroviy maqsadlar uchun mo'ljallangan obyektдан, masalan, ibodat maskani, uy yoki boshqa xil turar-joy imorati yoxud maktabdan harbiy harakatlarni samarali qo'llab-quvvatlashda foydalanilmayotgani borasida muayyan gumon mavjud bo'lgan taqdirda, bunday obyektдан fuqaroviy maqsadlarda foydalanilayotgani taxmin etiladi.

Tahlil: Rossiyaning harakatlari xalqaro jinoyatlarni tashkil etadi, shu bois Xalqaro Jinoiy Sud Rim Statutining 13(b) moddasiga ko'ra ish yurituvni boshlash huquqiga ega. Shuningdek, BMT Xavfsizlik Kengashining Rossiyaga qarshi sanksiyalar qo'llay olmasligi veto huquqidan foydalanish bilan izohlanadi — bu

xalqaro huquqdagi tizimli bo'shliqni ko'rsatadi. Bu holat xalqaro adolat tizimining siyosiy bosimdan mustaqil bo'lish zaruratini ko'rsatadi.

2022–2025-yillar davomida turli davlatlar — Turkiya, Xitoy, Vengriya, BMT va Vatikan vositachiligida tinchlik muzokaralarini o'tkazishga harakat qilindi. Turkiyada Istanbul va Antalyada bir necha marta uchrashuvlar o'tkazildi, biroq tomonlar o'z pozitsiyalaridan chekinmadi. Ukraina suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlab qolishni talab qilmoqda, Rossiya esa xavfsizlik kafolatlari va “neytral maqom” masalasini ilgari surmoqda. Hozirda diplomatik urinishlar davom etmoqda, ammo mojarolar haligacha to'liq yakunlanmagan.

Xulosa: Rossiya–Ukraina mojarosi XXI asrning eng yirik harbiy va siyosiy inqirozlaridan biridir. U nafaqat Yevropa, balki butun dunyo xavfsizlik tizimiga ta'sir ko'rsatdi. Bu mojarolar xalqaro huquq tamoyillarining mustahkamligini sinovdan o'tkazdi. Tinchlikni tiklash uchun xalqaro hamjamiyatning birlashgan harakatlari, diplomatik bosim va huquqiy mexanizmlarni qo'llash zarur. Ukraina suvereniteti va xalqaro adolatni ta'minlash — barqaror tinchlikning asosiy kafolatidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi (United Nations Charter, 1945) — ayniqsa 2(4)-modda (davlatlararo kuch ishlatmaslik prinsipi) va 51-modda (o'zini himoya qilish huquqi).

2. Jeneva Konvensiyalari (1949) va 1977-yilgi Qo'shimcha protokollar — urush vaqtida fuqarolar, asirlar va tinch aholini himoya qilish bo'yicha asosiy xalqaro hujjatlar.

3. 1907-yilgi Gaaga Qoidalari (The Hague Regulations) — qurolli mojaralarda harbiy yurish va okkupatsiya qoidalarini belgilaydi.

4. Rim Statuti (Rome Statute of the International Criminal Court, 1998) — urush jinoyatlari, insoniyatga qarshi jinoyatlar va genotsidni aniqlovchi asosiy xalqaro manba.

5. Xalqaro Sud (ICJ) Qarori: Ukraine v. Russia (2022-yil 16 mart) — “Genotsid konvensiyasi doirasidagi da'vo bo'yicha vaqtinchalik chora” haqidagi qaror.

6. Azimov M.M., Muminov A.R., Nug'manov N.A., Umarxanova D.Sh. Xalqaro shartnomalar huquqi. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2016.